



“Alisher Navoiy va XXI asr”

9-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Bursa, 2024-yil 8-fevral

“Ali Şir Nevai ve 21. yüzyıl”

9. ULUSLARARASI KONFERANSI

Taşkent-Bursa, 8 Şubat 2024

“Alisher Navo’i and the 21st century”

9th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Bursa, February 8, 2024



بوسوزکیم

آندین خبر

غایت بونمای یردی رعایت
کبری شریف یوق شاندین
کلم الناس علی قدر عقولهم

**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbekiston Respublikasining
Turkiya Respublikasidagi Elchixonasi
Bursa viloyati Usmong'oz tuman hokimligi
1326 Bursa Fatih muzeyi
Bursa Uludog' universiteti**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

mavzusidagi 9-uluslararo konferansi materiallari

2024-yil 8-fevral

Toshkent - Bursa - 2024

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Vahit TURK,

filologiya fanlari doktori, professor

Istanbul Kultur universiteti

Tahrir hay'ati:

Vahit Turk (Turkiya), Bulent Bayram (Qozog'iston), Funda Toprak (Turkiya), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Tanju Oral Seyhan (Turkiya), Qosimjon Sodiqov (O'zbekiston), Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Emek Ushenmez (Turkiya), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Nusratullo Jumaxo'ja (O'zbekiston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Nodirbek Jo'raqo'ziyev (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 9-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'zni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Ali Őir Nevai TaŐkent Devlet zbek Dili ve Edebiyatı niversitesi
Trkiye'deki zbekistan Bykelilięi
Bursa Osmangazi Belediyesi
1326 Bursa Fetih Mzesi
Bursa Uludaę niversitesi

«ALİ ŐİR NEVAİ VE XXI. ASIR»

9. Uluslararası Konferans Bildirileri

8 Őubat 2024

TaŐkent – Bursa – 2024

Sorumlu Editörler:

Prof. Dr. Shuhrat SIROJIDDINOV,

Ali Şir Nevai Taşkent Devlet Özbek Dili ve Edebiyatı Üniversitesi Rektörü

Prof. Dr. Vahit TÜRK,

İstanbul Kültür Üniversitesi

Yayın Kurulu:

Vahit TÜRK (Türkiye), Bülent BAYRAM (Kazakistan), Funda TOPRAK (Türkiye), Almaz ULVİ (Azerbaycan), Tanju Oral SEYHAN (Türkiye), Kasımcı SADIKOV (Özbekistan), Bakıcan TOKLIYEV (Özbekistan), Emek ÜŞENMEZ (Türkiye), Nurbay CEBBAROV (Özbekistan), Nusratulla CUMAHOCA (Özbekistan), Keramet MOLLAHOCAYEVA (Özbekistan), Dilnavoz YUSUPOVA (Özbekistan), Nazliye NARMURADOVA (Özbekistan), Nadirbek CORAKUZİYEV (Özbekistan), Azade TACİBAYEVA (Özbekistan)

Bu kitapta "Ali Şir Nevai ve 21. Yüzyıl" konulu 9. uluslararası konferansın bildirimlerini içermektedir. Kitapta Ali Şir Nevai'nin edebi ve bilimsel mirasının klasik edebiyatımızdaki yeri ve günümüz için önemi, ayrıca şairin eseriyle ilgili metin çalışmaları ve dil biliminin sorunlarına ilişkin bilimsel makaleler de bulunmaktadır. Özbek Nevai dilbilim çalışmalarının mevcut durumu ve geleceği hakkında belli bir fikir vermesi onun önemini belirleyen faktörlerden biridir. Kitap; filoloji uzmanları, bilimsel araştırmacılar, lisans ve lisansüstü öğrencileri ve geniş bir okuyucu kitlesine yöneliktir.

Yazarların görüşleri ve eserlerin başlıklarının yazılışı yazım ve noktalama açısından farklılık gösterebilir.

**Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek
Language and Literature
Embassy of the Republic of Uzbekistan in the Republic of Turkey
Governorate of Usmanqazi, Bursa Province
1326 Bursa Fatih Museum
Bursa Uludag University**

«ALISHER NAVO'I AND THE 21st CENTURY»

9th International Conference Proceedings

Tashkent - Bursa - 2024

Binobarin, Farhod kurash asnosida o‘z nafsini yengadigina emas, balki davlat va boylik hirsini, g‘azab hamda riyo qutqularini ham bartaraf etadi. Ishq uni nafs lashkari bilan kurashga otlantirib, mislsiz kuch, sabot va iroda bag‘ishlaydi. Qahramon Suhaylo va Suqrotdek ulug‘ ustozlardan ko‘zgu sehri: (*poklanish ilmi va ishq siri*) ni ochishni o‘rganadi.

Bu o‘rinda ayni masalaga Navoiy dunyoqarashidan kelib chiqib munosabat bildirish lozim. Zotan, genial shoir sog‘lom aql va tafakkurga mos keladigan narsalarni yoqlaydi. Hamisha mukammal bilimga intilish lozimligini uqtiradi. Navoiyning ilmiy-nazariy fikriy qamrovi shu qadar kengki, bu ulkan salohiyat tufayli bobomiz kelajakda yuz berish ehtimoli mavjud bo‘lgan ko‘plab voqea-hodisa va jarayonlarni ilmiy bashorat qiladi. Bu zinhor karomatgo‘ylik emas, balki empirik bilimlarga tayangan holda ilgari surilgan ilmiy farazlardir. Tabiiy va ijtimoiy hodisalarni mifologik obrazlar orqali idrok qilishdan uning mohiyatini anglash sari teranlashish shunda ko‘rinadiki, shoir afsungarlikni butkul inkor etadi. Albatta, uning ijodiy taxayyulida yaralgan ayrim obyektlar g‘ayritabiiydek tasavvur etiladi. Lekin, 583 yil ilgari yashagan kishining abstrakt tafakkur va badiiy fantaziyasida bo‘y ko‘rsatgan romantik yuksaklik ma‘rifiy qadrini nazardan qochirish mumkin emas.

Iskandar xizmatidagi besh yuzta hakim ayniqsa, Arastu va Aflotunning barcha jodularga shikast yetkazishga bosh bo‘lishi Navoiyning ilmu hikmatga bo‘lgan etibori belgisidir. Shunday qarashdan kelib chiqilgani uchun ham bosh qahramon hukamo va zohidlar oldida taxtdan tushib, ularga alohida iltifotu e‘zoz-ikromlar ko‘rsatadi. Har birini o‘ziga loyiq o‘rinlarga o‘tqazadi. Hind shohi elchilari (*olim, oqil va solih kishilar*) tilaklarini vojib deb topadi. Hatto muborak jamol pirlar oldida behad xijolat chekadi.

Bizningcha, dostonidagi o‘t va shamolni bo‘ysundirish bilan bog‘liq tilsimlar ancha arxaikdir. Chunki shahar tirikchiligini itoatkor olov va otashkada bilan bog‘lab tasavvur qilish poetik tafakkurda “Avesto” inonchlaridan qolgan izlar bo‘lsa ajab emas. Bunday syujet qoldiq (rudiment)lari “Ramayana” eposi va “Loviya poyasi” nomli kinofilmida ham mavjud. Ushbu filmida xayoliy mamlakatning tirikchiligi oltin tuxumlarni otashkadalarda yondirish orqali ta‘minlanadi. Ularning manbalari (*chiltor va g‘oz*) o‘g‘irlanishi esa, zaminni harorat va ziroatdan, elni rizq-ro‘zdan mahrum qiladi. Chiltor jo‘rligida tilla tuxum qo‘yuvchi g‘ozni o‘z egalari (*ular devlar tarzida poetik idrok etilgan*) ga qaytarishgina gunohlar kafforati sanaladi.

Ko‘rinadiki, film ijodkorlari talqinida insoniyat tiriklik manbasi bo‘lgan olovni o‘g‘irlash gunohligi bilan bir qatorda, tavqi la‘natdan xalos bo‘lishning kaliti tavbada mujassamligiga ham urg‘u berishgan.

Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Lison ut-tayr”, “Xazoyinul maoniy”, “Mahbub ul-qulub” singari asarlarida ham olamni idrok etish, kamolot bosqichlaridan o‘tish asrori poetik ifodasini topgan. Anglashiladiki, axloqiy komillik, ma‘rifat, ishq, go‘zallik va tafakkur, asl haqiqat g‘oyasini ilgari surgan mutasavviflar uchun inson haqiqati – Qur‘on, Qur‘on haqiqati esa komil insondir.

“Qur‘oni Karim” va muqaddas hadisi sha‘riflarda kelishicha, inson sharaflangan va farishtalarning unga sajda qilishi buyurilgan. Jumladan kitobda: Odam bolalarini mukarram qilib yaratdik, deyiladi. Unga ko‘ra Parvardigorning olamlarni yaratishdan ko‘zlagan maqsadi Inson ekani ayon bo‘ladi. Olam Alloh husnu jamoli uchun ko‘zgu bo‘lsa, Inson bu ko‘zguning mazhari. Ya‘ni Yaratuvchi qudrati va asrori, ilmu karomati aks etgan xilqatdir. Inson – koinot gultoji. Undan boshqa biror jonzotga bunday tafakkur va amal ravo ko‘rilmagan. Tasavvuf ta‘limotida ham inson Xudoning yerdagi xalifasi, ikki olamning gultoji, qaymog‘i sanaladi. Shuning uchun ham Navoiy: “Odamiy shariful kavnayndur”, ya‘ni: Odam ikki dunyoning eng aziz va eng sharif yaratig‘idir, deb bilgan.

Demak, istiqloq yillarida amalga oshirayotgan ezgu amallarimiz va istiqbolni ko‘zlovchi rejalarimizda “inson va uning qadr qimmatini”, degan ulug‘ tushuncha markaziy o‘ringa qo‘yilishi

bejiz emas. Ular zamirida milliy qadriyatlarimiz, xususan Navoiy dostonlarida ulug‘langan insonparvar g‘oyalari muhim o‘rin tutadi. Bu hol Navoiy g‘oyalari real hayotga faol tadbiiq etilayotgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, biz inson, uning hayoti, ozodligi, sha’ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadigan go‘zal mamlakatning baxtiyor fuqarolari ekanimizdan g‘ururlanishga to‘la haqli avlodmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. Ж. 11. – Т.: Фан, 1993.
2. Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти., 2021. – Б. 128.
3. Бертельс Е.Э. Роман об Александре и его главные версии на востоке, – М. -Л., 1948.
4. Ковалев С.И. Александр Македонский, – Л., 1937.
5. Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир // Халқ сўзи. 2020 йил, 1 октябрь, № 207.
6. Тревер К. Александр Македонский в Согде, // “Вестник истории”, 1947, № 5.
7. Қуръони Карим. Қахф сураси. / Алоуддин Мансур. Қуръони Карим, Ўзбекча изоҳли таржима. – Тошкент: Чўлпон, 1992.

“GUL YUZUNG KO‘RGACH TUTAR O‘Z HOLIG‘A MOTAM BAHOR...”

Dilrabo QUVVATOVA

Filologiya fanlari doktori(DSc), professor

Buxoro davlat universiteti

dilrabo68@mail.ru

DOI: 10.52773/tsuull.navoiyconf.2024/NDHA8071

Annotatsiya. Alisher Navoiy ijodi hech qachon so‘lmaydigan bo‘stonga o‘xshaydi. Jumladan, ulug‘ mutafakkirning tabiiat lirikasi namunalari ushbu bo‘stondagi yashnab turgan gullarga o‘xshaydi. Maqolada shoirning bahor haqidagi g‘azallari tahlil etilgan. Shu asosda shoirning peyzaj yaratish mahorati, lirik qahramon ruhiy kechinmalarini ko‘klam manzaralari vositasida obrazli ifoda etganligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. *Peyzaj, g‘azal, ruhiy kechinma, mubolag‘a, tashxis, husni ta‘lil, tanosib, ramziy-istoraviy tasvir, borliq-inson-tabiiat zanjiri.*

Abstract: Alisher Navoi's literary legacy is akin to an evergreen garden, with the vibrant blossoms of his natural lyricism serving as noteworthy examples. This article scrutinizes the poet's ghazals that capture the essence of spring. Through this exploration, the poet's skill in depicting landscapes and conveying the spiritual journey of the lyrical hero is revealed metaphorically through the beauty of natural scenery.

Keywords. *Landscape, ghazals, spiritual experience, exaggeration, diagnosis, interpretation, proportion, symbolic-metaphorical image, chain of universe-man-nature.*

Alisher Navoiy o'zining teran g'oya va timsollarga boy asarlari bilan o'z muxlislari qalbini ezgulik hamda ma'rifat nuriga chulg'ab kelmoqda. Shoir mahorati hadsiz sehrlil olamdir. Alisher Navoiy qaysi bir mavzuga qo'l urmasin, uni yoritishda mahorat ko'rsatadi, qaysi bir qahramonni gavdalantirishga azm qilmasin, uni kitobxon nazdida butun bir dunyosi bilan ravshanlashtirib beradi. Alisher Navoiy o'y-xayollari, qarashlari, orzu-istaklari, intilishlari aks etgan asarlari zaminida adib ixlos qo'ygan koinotning sarvari va gultoji – inson, uning hayoti, manfaatlari yotadi. Majoziylik shoir asarlarining jon tomiri sifatida yuzaga chiqar ekan, Alisher Navoiy jamiyatdagi ziddiyatlarni ko'proq tabiat olamiga murojaat qilgan. Shoir tasvirlaridagi rang-baranglik kishini hayratga soladi, tabiat tasviri insonni cheksiz tuyg'ular olamiga yetaklaydi. Shu jihatdan Alisher Navoiyning tabiat lirikasini o'rganish o'sha yuksak mahoratning ayrim qirralarini yoritishga katta imkon yaratadi. Adabiyotshunoslikda Alisher Navoiyning yil fasllariga murojaati, peyzaj yaratish mahorati bilan bog'liq qator tadqiqotlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar shoirning u yoki bu asari, she'riyati misolida bu mavzuga atroflicha munosabat bildirsalar, ba'zilar ushbu masalani kengroq tadqiq qilishga uringanlar. Professor A.Hayitmetov shoir she'riyatida tabiatga munosabat, Qish, Bahor fasllari rasviri berilgan g'azallarida hayvonot va nabotot olamiga, insonga bo'lgan mehr kabi jihatlarni ochib beradi. Olimning o'rinli ta'kidlashicha: “Navoiy she'riyatida tabiatga munosabat shoir ijodining hayotiyiligini ta'minlagan eng muhim omillaridan biridir. U o'z ijodining ilk davrlaridan boshlab insonni, uning orzu-o'ylari intilishlari, his-tuyg'ularini tabiat qo'ynida, tabiat bilan bog'liq holda tasvirlashga harakat qiladi. Borliq o'zining butun boyligi, rang-barangligi bilan Navoiy she'riyatining yuksak badiiyiligini ta'minlaydi” [Хайитметов,1, 35-37].

Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to'plami”ning 1-6 jildlarida [Alisher Navoiy, 2] tabiat tasviriga bag'ishlangan g'azal, qit'a, ruboiylar nihoyatda ko'p bo'lib, ularda fasllar manzara yoki she'riy tasvir vositasi hamda inson ruhiy holati kechinmalari sifatida o'z ifodasini topadi. Masalan, bahor butun borliqqa turli-tuman liboslar kiydiradi, dala-yu bog'lar, qushlarning nag'masoz ohanglariga to'ladi, quyosh kulib, zarrin nurlar sochadi. Dashtu biyobonlar turfa ranglarga chulg'anadi. Nafaqat tabiatda, balki insonning zohiri va botinida ham uyg'onish, yangilanish, go'zallik, mavjlanish, parishonlik, maftunlik, shaydolik kabi holatlar kuzatiladi:

Bodayu ishqu shabob ayyomiyu, fasli bahor,

Pand netsunkim erur oshuftalig'larning chog'i [Navoiy, 3, 422].

Tabiatdagi hodisalarning barchasidan Alisher Navoiy oshiqning ziddiyatli ruhiy kechinmalarini ochib berishda mahorat bilan foydalangan. Oshiqning ruhiy va jismoniy holati fasllar, ulardagi tabiiy hodisalar bilan uyg'un tarzda o'zgarib boradi. Masalan, bahor ayyomida yer yuzini ko'zlarni quvontiruvchi qip-qizil lolalar qoplaydi. Oshiq nazdida zaminni yashnatgan lolazor ko'klam sharofatidan emas, balki ma'shuqa yuzi hajrida oshiq ko'zlaridan to'kilgan qon yoshlaridan vujudga kelgan:

Yer yuzin tutqan bahor ayyomi ermas lolazor,

Kim, yuzing hijronidin giryon ko'zim qon yig'lamish [Navoiy, 3, 182].

Bahor faslining kelishi oshiq qalbiga o'zgacha shukuh, tarovat bag'ishlashi, vasldan umidvorlik hissi ham ulug' shoir nazaridan chetda qolmagan. Qishda atrof-muhitning bir xil, zerikarli tusda bo'lishi, daraxtlar va gulu lolalarning qurub qolishi, yakranglik oshiq qalbining ham bahorga intiqligi, lolayu gul sayliga chiqqan ma'shuqasining vaslini bir ko'rishga mushtoqligini ifodalab bergan misralar ulug' shoir tafakkurining tabiat bilan uzviy aloqadorligini isbotlaydi. Bahor kelgach, ma'shuqaning jamolini vasf etgan oshiq o'zining holatini quruq shox bahorda yashnab gullar ochishiga mengzaydi:

Jamolin vasf etarmen hamdamim ul guluzor o'lg'ach,

Quruq shox o'ylakim zohir qilur gullar, bahor o'lg'ach [Navoiy, 4, 97].

Yoki bahor faslining ajoyibotlari – gulu g'uncha, yam-yashil maysayu sabzalar ma'shuqaning g'unchamonand kichkina og'ziyu, ustki labiga tarovat baxsh etgan mayin tukchalar ila go'zaldir. Ma'shuqa bahordan emas, go'yo bahor ma'shuqadan nusxa olgan, uning go'zalliklariga hamdam:

G'unchayu xandon bila husning guli xurram bahor,

Xatting andoq sabzakim, bo'lg'ay anga hamdam bahor [Navoiy, 4, 140].

Alisher Navoiy mubolag'a va tashxis san'ati vositasida bahor fasliga oid juda g'o'zal tasvir yaratgan. bahor fasli o'zining ajoyib g'aroyibotlari, sayru bazmlari, gulu lola sayllari bilan kishilar ko'ngliga orom bag'ishlaydi. Ana shu sayllarda latofatli, parichehra ma'shuqaning oydek jamoliga ko'zi tushgan elning xayollari to'zg'ib, gulu gulshan sayli ham tatimay, ma'shuqa go'zal yuzi hajrida hatto bahor ham o'z holiga motam tutishini obrazli tarzda ifodalaydi:

Ra'du sayl ermas, fig'onu ashk erur bukim, har el

Gul yuzung ko'rgach tutar o'z holig'a motam bahor [Navoiy, 4, 140].

Alisher Navoiy she'riyatida oshiq doimo Haq vaslini izlovchi tolib, ma'shuqa hajrida behisob dardkash qiyofasida namoyon bo'ladi. Hazratning o'zlari "ishq ahlining erur rangi sarig'", deb ta'kidlaganlaridek, dilida hajr va alam, ohi jahonga tushgan o't, ko'z yoshlari ko'klam yomg'iri, rangi esa "xazonlig' bo'ston" kabidir. Ma'shuqa – uning aksi. U o'zining gulu gulgun chehrasi, zavqu shavqqa to'la sho'xliklarini darig' tutish ila oshiq qalbini tirnaydi. Ana shu holatni shoir go'yo yilning ikki faslini bir mavsumda bo'lishi kabi turfa yangilik, kishini ajablantiradigan va ajoyib hodisa sifatida tasvirlaydi:

Orazim aksi yuzung oyina tushgan turfadur,

Kim ko'rubtur ham xazon bir oyda bo'lmoq ham bahor [Navoiy, 4, 140].

Yoki shoirning "G'aroyib us-sig'ar" devonida ham yuqoridagi baytga monand manzara aks ettirilgan misrani uchratamiz. Unda ham bahor va xazon fasllari birgalikda oshiq va ma'shuqaning ruhiy-tabiiy holatini aks ettirish uchun xizmat qilgan:

Zarvaraq birla bezabdur gul yuzin, vah, turfa ko'r

Kim, bahor ichra xazon zohir qiliptur gulshanim [Navoiy, 4, 316].

Taniqli nazariyotchi olim Y.Ishoqov Alisher Navoiy she'riyatida tabiat tasviri, xususan, fasllarning badiiy ifodasi, betakror talqini, ifoda vositalari hamda ulardan foydalanishdagi mahorati qirralarini, g'azallaridagi ramziy-istioraviy tasvir usullarini bir necha guruhga bo'lib tasnif etar ekan, shoirning turkum g'azallarini tabiat manzaralari asosiy o'rin tutgan durdonalar sifatida e'tirof etadi: "Peyzaj lirikasining haqiqiy namunalari hisoblangan ana shunday g'azallarda shoir tabiat tasviridan lirik qahramonning ruhi va kechinmalarini ochib berishda bir fon sifatida foydalanadi. Aniqrog'i, tabiat tasvirida har bir detal lirik qahramon holatining ma'lum tomonini ochib berishga xizmat qiladi". Masalan, bahor oyida tabiat va nabotot olamida yuz beradigan turfa holatlar, oshiqning ishqzada ko'ngil kechinmalari tasviri uchun xizmat qiladi. Bahorda tabiatda yuz beradigan goh yomg'ir yog'ishi, goh quyosh kulib turishi, goh chaqin chaqib, yuraklarga g'ulg'ula solishi hodisalaridan ulug' shoir lirik qahramon holatini tasvirlashda foydalanadi. Ya'ni, tabiat hodisalari g'oyo oshiqning ishqdan telbavor holatiga qiyoslanadi:

Bulajablig'lar bahori ishq aro ko'rkim, meni

Gah bulutdek yig'latur, gohe choqindek kuldurur [Navoiy, 4, 140].

Alisher Navoiyning aksariyat g'azallarida ishq jununlik darajasiga yetsagina, haqiqiy ishq sifatida tasvirlanadi. Shoirning lirik qahramoni ham ishqda haqiqiy talab yo'liga kirgan va bu tuyg'uga o'ta sadoqatli oshiqlardir. Ularning hijronzada qalb ohlarini ma'shuqaning go'zal jamoli, qoshu ko'zining vasfi yanada kuchaytiradi, oxir oqibat ishqda jununlik oshiq uchun shafarga aylanadi. Ana shu jununlikning kuchayishiga tabiat hodisalari va bahor fasli ham "ko'maklashadi". Zero, bahorda yangi oy chiqishi va gullash mavsumining boshlanishi bilan ayrim kishilar jismida

ham jununlikning ortishi ham Sharq tabobatida ma'lum hodisalardandir. Ulug' shoir satrlarida oshiq jununligining ortishiga sabab bo'lgan jihatlar bahor fasli bilan uyg'unlikda ifodalanadi:

Qoshu yuzungdin agar ortar jununim ne ajab,

Telbalikka ham yangi oydur madad, ham navbahor [Navoiy, 4, 146].

Shoir tabiatning juda ko'p mo'jizalarini, undagi betakror voqea va hodisalarni odamlarga o'rnak qilib ko'rsatadi, har damda ulardan ibrat olish, zavqlanishga chaqiradi. Alisher Navoiy she'riyatida bahorga murojaat ajralib turadi. Badiiy so'z san'atida shodu xurramlik ramziga aylangan ko'klam Navoiy qalamida ham lirik qahramonlar xushbaxtlik onlarining badiiy ifodasi uchun xizmat qilgan. Oshiq qalb uchun bahor fasli ma'shuqa bilan totli, yor bilan go'zal va tarovatlidir. Yorning oshiqqa lutfsizligi esa bahorni ham do'zaxga aylantiradi. Ma'lumki, Quroni Karimning "Rahmon" surasida jannatda eng go'zal hurlar, parilar yashashi haqida ma'lumot keltiriladi [Quroni Karim, 5, 503]. Mumtoz adabiyotdagi go'zallar tasviri ham ana o'sha jannatni hurlarga monand ifodalanadi, ta'riflanadi. Bahor faslining yorsiz bo'lishi, uni jannatga emas, aksincha do'zaxga aylantiradi:

Bahor sensiz agar do'zax o'lsa tong ermas,

Bihisht ichinda liqo bo'lmasa erur do'zax [Navoiy, 4, 106].

Navoiy tasviridagi qahramonlar visolning farahbaxsh nashidasidan bahra olayotgan lahzalarda go'yo tabiat ham ularga xayrixoh: atrofdagi binafshayu lolalar, maysayu sabzalar, mushk hidini olib keluvchi sabo, sarmast va sho'x kiyiklar, gul ishqida nolish qilayotgan bulbul, chiroyli qanotlarini ko'z-ko'z qilayotgan tovus – hamma-hammasi ishq ahlining saodatli davrasiga yanada joziba, shodlik hadya etayotgandek. Ammo ba'zida tabiatdagi bu farahbaxsh onlar ham oshiq qalbiga taskin berolmaydi:

Bahor bo'ldiyu gul mayli qilmadi ko'nglum,

Ochildi g'unchavu lekin ochilmadi ko'nglum [Navoiy, 4, 318].

Ko'klamda dalayu dashtlarning ko'm-ko'k tusga kirib, chashmayu ariqlarda suvlarning to'lib-toshib oqishi ham shoir nazaridan chetda qolmagan. Bu holatni shoir ma'shuqa vasli ilinjida oshiqning ko'zidan oqqan shodlik yoshlarini bahor faslida to'lib-toshib oqqan chashma suviga mengzaydi:

Ne ayb, shodlig' ashkim ko'p oqsa vaslingda,

Bahor fasli bo'lur chashmalar suyi fuzun [Navoiy, 4, 386].

Bahor shoir g'azallarida doim ham oshiq uchun xushbaxt visol onlarini emas, balki hijron bo'yini ham olib keladi. Bahor faslida barcha elning shodu xurramligiga oshiqning hijrondan azob chekkan holati qarama-qarshi qo'yiladi. Ulug' shoirning mahorati shundaki, tanosib san'ati (bahor, bo'ston, gul, rayhon, isi) va husni ta'lil (hijron isi) orqali gulu rayhon isiga hijron isini qarama qarshi qo'yib, betakror tasvir yarata olganligida ko'rinadi. Gul va rayhonning isi – ma'shuqaning isidir. Oshiqning dimog'iga gulu rayhon ila ma'shuqa hijronining isi keladi. Ishqdan kuygan ko'ngil ma'shuqaning bahorda gul-gul ochilishi, go'zallashishi tufayli yanada ko'proq qiynaladi. Bahorning kelishi uning qalbini tirnaydi. Ma'shuqaning sho'xlilari, jabru sitami, hijroni ortadi. Misrada tardu aks san'ati orqali poetik mazmun kuchaytirilgan (gulu rayhon-rayhon ila gul).

Gar bahor el topsa bo'standin gulu rayhon isi,

Kelur ul rayhon ila guldin manga hijron isi [Navoiy, 6, 442].

Umuman olganda, Alisher Navoiyning tabiat olami, bahor fasliga munosabati, muhabbati uning she'riyatida yanada yorqin ko'zga tashlanadi. Mutafakkir shoirning biror g'azali yo'qki, shoir unga tabiat manzaralarining, fasllar xususiyatlarining, borliqqa inson ta'sirining (yoki aksincha) yangidan-yangi qirralarini ochmagan bo'lsin. Ularning barchasida **borliq-inson-tabiat** zanjiri asosida ulug' shoirning ideal fikrlari, tabiatdan yaralgan insonning yana qaytib unga singishi, qaytishi haqidagi falsafiy-badiiy qarashlari o'z aksini topadi.

MUNDARIJA

Shuhrat SIROJIDDINOV. So‘zboshi	7
Şuhrat SİRACIDDİNOV. Ön söz	9
<p>I SHO‘BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O‘RNI VA ADABIY TA‘SIR MASALALARI</p> <p>I OTURUM. ALI ŞİR NEVAÎ‘NIN EDEBI MIRASININ DÜNYA MEDENIYETINDEKI YERI VE EDEBÎ ETKİLEŞİM</p> <p>PANEL I. THE ROLE OF ALISHER NAVOI‘S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION AND THE ISSUES OF LITERARY IMPORTANCE</p>	
Prof. Dr. Vahit TÜRK. Ali Şir Nevâyî Mirasinin Türk Kültüründeki Yeri	11
Prof. Dr. Benedek PÉRI. Mîr ‘Alîşîr Navâyî and a Popular Ottoman Imitation Network From the 16th Century	18
Muslihiddin MUHIDDINOV. Alisher Navoiy va salafleri ijodida so‘z fazilati	28
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN, Pr. Dr. Dilnavoz YUSUPOVA. Global/Küresel Şahsiyet Olarak Ali Şir Nevâyî	36
Razmi GHOLAMREZA. Nevâi Şiirde Timurlu Edebi Üslubun Kurucusu (Timurlu Üslubu Teorisi)	46
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. O‘z zamonasidan ilgarilagan buyuk ijodkor	66
Yaşar QASIMBƏYLİ. “Xosrov və Şirin” və “Fərhad və Şirin” müqayisəli ədəbiyyatşünaslıq müstəvisində	71
Nafas SHODMONOV. Navoiy g‘azallariga Shayboniy javoblari	76
Alimuhtar MUHTAROV. Nizami Gəncəvidən Əlişir Nəvaiyə Türk Ruhunun XXI Əsrdə Təzahürləri	82
Bahodir KARIM. Alisher Navoiy va jadidlar (mavzuga doir ayrim mulohazalar)	88
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Adabiy ta‘sir: Navoiy va Nishotiy	94
Burobiya RAJABOVA. Attor va Navoiy talqinida Robiya Adaviya siymosi	99
Ahmet AKALİN. Ali Şir Nevai‘nin Özbekistan‘ın Yumuşak Gücü İçerisindeki Konumu	105
Ergash OCHILOV. Alisher Navoiy va Nosir Buxoriy	109
Pəri HÜMBƏTOVA. Məsihi Təbrizinin Əlişir Nəvaiyə yazdığı təxmisləri	114
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek adabiyotida Navoiy obrazi tadriji	119
Şəhla MƏCİDOVA. Əlişir Nəvai yaradıcılığında Nizami Gəncəvi əzəməti	124
Saidbahrom AZIZOV. Important Astronomical Concepts in the works of Alisher Navoi	128
Shermuhammad AMONOV. Adabiy izdoshlik: Navoiy va Tabibiy	136
Malohat PULATOVA. Jomiy, Navoiy va Fuzuliy “Arba‘in”larida hadislarining adabiy talqini masalalari	141
Sherxon QORAYEV. Abdurahmon Jomiyning kitobxonlik kechalari va Alisher Navoiy	147
Erfan Eshghi nour YASIN OĞLU. Nevai ve Nesimi arasindaki benzerliklere ve	151

farkliliklarga bir bakiş	
Diyora ABDUJALILOVA. “Hayrat ul-abror” hamda “Gulshan ul-anvor” dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	164
Shahzodbek RUZMETOV. Alisher Navoiy va Lamii Chalabiylarning “Farhod va Shirin” dostonlarining syujet xususiyatlari	171
II SHO'BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI	
II OTURUM. NEVAI'NIN MANZUM, MENSUR VE BILIMSEL ESERLERININ ELE ALINMASI	
PANEL II. ISSUES IN STUDYING NAVOI'S POETIC, PROSE, AND SCIENTIFIC LEGACY	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy ijodida turkiy ruhiyat ifodasi	176
Almaz Ülvi BİNNATOVA. Əlişir Nəvainin “Hədisi-Ərbəin” Əsərinin Məzmun Xüsusiyyətləri	184
Sultonmurod OLIM. İlk turkiy g'azalni kim yozgan? (Turkiy she'riyatda g'azal paydo bo'lishining tadrijiy jarayonlari tahlili)	189
Prof. Dr. Funda TOPRAK. Bedāyü'l Bidāye'de Mitolojik Unsurlar (‘Ankā-kāf - Simürg ve Ejderha)	199
Nusratullo JUMAXO'JA. Navoiyning musalsal g'azallar yaratish mahorati	208
Prof. Dr. Hüseyin BAYDEMİR. Nevaî'nin Ferhat ile Şirin Mesnevisinin Halk Varyantlarıyla Mukayesesi	213
Olimjon DAVLATOV. Adl ila olam yuzin obod qil..	218
Qodirjon ERGASHEV. Sayyid Hasan Ardasher biografiyasiga oid ayrim masalalar xususida	222
Iqboloy ADIZOVA. Navoiy g'azallarida tabiat lavhalarining o'rni	226
Uzoq JO'RAQULOV. “Muqbil va Mudbir” hikoyatida safar motivi	230
Maqsud ASADOV. Navoiy asarlarida “tab' ahli” talqini	234
Faridaxon KARIMOVA. Alisher Navoiy debochalari: kompozitsion-uslubiy mukammallik	238
Karomat MULLAXO'JAYEVA. “Xamsa” dostonlarida Nizomiy ta'rifi	244
Islamjon YAKUBOV. “Saddi Iskandariy” dostonining genetik asoslari va yetakchi konsepsiyasi	251
Dilrabo QUVVATOVA. “Gul yuzung ko'rgach tutar o'z holig'a motam bahor...”	257
Abdulhamid QURBONOV. Bodayi maqsud jomining zavqi (“G'aroyib us-sig`ar”dagi 304-g`azal tahlili)	261
Usmon QOBILOV, Xolyigit XOLMURODOV. Alisher Navoiy she'riyatida obrazlar transformatsiyasi	268
Ozoda TOJIBOYEVA. Alisher Navoiy g'azallarida ko'ngil timsoli	272
Zilola AMONOVA, Zufnunabegim AXROROVA. “Nasoyim ul-muhabbat”da Imom G'azzoliy talqini	277
Dildoraxon ABDULLAYEVA. Radif va uning Navoiy lirikasida qo'llanishi	281
Tozagul MATYOQUBOVA. Navoiy ijodiyotida hayo talqini	286
Ilyos ISMOILOV. Talmud adabiyotida Aleksandr haqidagi afsonalar	290
Orzigul HAMROYEVA. “Navoiyning forsiy shoirlik'i...” xususida	295
Durdona ZOHIDOVA, Shoiraxon XO'JAYEVA. “Nazm ul-javohir”da tasavvuf	300

maqomlarining poetik taqini	
Maryam ESHMUHAMEDOVA. Alisher Navoiy ta'rifida Ahmad Yassaviy va uning izdoshlari	307
Shahnoza RAHMONOVA. O'zbek epik poeziyasidagi ishqiy-sarguzasht dostonlarda Navoiy an'analari	313
Alisher RAZZOQOV. Navoiy she'riyatida Haqiqati Muhammadiya taqini va komil inson obrazi	318
Sanobar ABDURAXMANOVA. Alisher Navoiy ijodida nasr va nazm uyg'unligi	324
Nafisa RAXMANOVA. Alisher Navoiy "Farhod Va Shirin" dostonidagi obrazlarning adabiy manbalardagi ildizlari	329
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI	
III OTURUM. ALI ŞİR NEVAÎ'NIN ESERLERININ KAYNAKLARI VE METİN ÇALIŞMAŞLARI	
PANEL III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVOI'S WORKS	
Yusuf TURSUNOV. Navoiy kulliyotlari tarkibidagi "Muhokamatu-l-lug'atayn" asari nusxalarining ba'zi xususiyatlari haqida	335
Boqijon TO'XLIYEV, Ilyos ISMOILOV. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"si nodir adabiy manba	339
Prof. Dr. Azizağa NECEFZADE. Mir Ali Şir Nevai'nin Eserlerinin Bakü Nüshalari	344
Aftondil ERKINOV. Alisher Navoiy devonlarining aniqlangan yangi nusxalari (2010–2024-yillar)	348
Prof. Dr. Emek ÜŞENMEZ. British library'deki Alî Şîr Nevâ'î yazmalari üzerine	355
Shavkat HAYITOV. Badiiy nasrda Quro'ni karim oyatlarining o'rni	363
Zulxumor MIRZAYEVA. "Majolis un-nafois"ga yangicha yondashuv tajribasi (xorij navoiyshunosligi misolida)	374
Azadbey ALIMOV. Alî Şîr Nevâ'î'nin "Hamset-ül-Müteheyyirîn" Eseri Edisyon-Kritik Metini Üzerindeki Çalışmalar	382
Zokirjon MAMAJONOV. Yozuv asosidagi san'atlar va intertekstuallik	388
Yılmaz CANKALOĞLU. Devlet Şah'ın Tezkiretü's-Şuarâ' ve Hüseyin Baykara'nın Risâle Eserinde Alî Şîr Nevâ'î	393
Umedullo MAHMUDOV. Munshaot janrining turkiy adabiyotga intiqoli xususida	396
Oysara MADALIYEVA. "Badoyi' ul-bidoya" devoni qo'lyozmalari va tadqiqi tarixiga nazar	400
Akrom MALIKOV. Alisher Navoiy matnlarini kontekstual tahlil metodi asosida tadqiq qilish muammosi	409
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlariga kirgan boshqa she'rlar	417

IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI

IV OTURUM. ALI ŞIR NEVAÏ'NIN ESERLERININ YABANCI DILLERE ÇEVIRILMESI VE YURTDIŞINDA YAPILAN INCELEMELER

PANEL IV. TRANSLATION OF WORKS OF ALISHER NAVOI' INTO FOREIGN LANGUAGES AND THEIR STUDY ABROAD

Hamidulla DADABAYEV. Alisher Navoiy asarlarida eski o'zbek tili harbiy istilohlari tizimining ifodalanishi	424
Prof. Dr. Tanju SEYHAN. Ali Şir Nevâyî'de Akıl Kavramı ve Kullanım Alanları	430
Qosimjon SODIQOV. Alisher Navoiy asarlarida ishlatilgan til bilimi atamaları	460
Prof. Dr. Zühal ÖLMEZ. Ali Şir Nevâyî'nin Eserlerinde Tanıklanan Çağatayca Söz Varlığı	470
Baxtiyor ABDUSHUKUROV. "Mahbub ul-qulub" asaridagi qadimgi turkiy so'zlar	474
Dr. Farhad RAHİMİ. Ferağî'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğündeki Eskicil Ögeler	479
Zulxumor XOLMANOVA. Alisher Navoiyning o'zbek tili so'z yasalishi taraqqiyotidagi xizmatlari	498
Dr. Urak LAFASOV. Alisher Navoi - the Founder of Comparative Linguistics	503
Prof. Dr. Ali YAKİCİ. Ali Şir Nevâyî'nin Eğitim Dili Türkçe Olan Ülkelerin Orta öğretimindeki Yeri	508
Emre Berkan YENİ. Ali Şir Nevâyî'nin Divanlarındaki Duygu Sözcükleri	516
Олимджон КАСИМОВ, Нодирбек ЖУРАКУЗИЕВ. Лексика созидания в касыде «Ruh-al-quds» («Священный дух») Алишера Навои	523
Dr. Siyamek HÜSSEYINALİZADE (Ergin Avşar). Dîvânu Lugâti't-Türk ve Nevai eserlerinin söz varlığı	530
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari turkiyalik navoiyshunos Vohid Turk taqinida	539
Muqaddas ABDURAHMANOVA. Alisher Navoiy ijodidagi omonimiyaning lingvokognitiv tahlili	543
Jo'ra XUDOYBERDIYEV. Alisher Navoiy asarlaridagi unli tovushlar tadqiqi haqida	548
Azizullah ARAL. Abdulhakim Shar'iy Juzjoniyning "Afg'onistonda navoiyshunoslik" nomli maqolasi haqida	555
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA. Hazrat Mir Alisher Navoiy ijodining Qozog'istonda o'rganilishi (Qozog'istondagi ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumta'lim maktablari misolida)	559
Mushtariy XOLMURADOVA. Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy ijodida qalam vasfi	564
Gulandom YULDASHEVA, Muqaddas SAIDAKBAROVA. Mariya Sabtelni: XV asr Hirot ijtimoiy muhiti	569
Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy lirikasini o'rganishda "Scaffolding" usulining ahamiyati	574
Oynisa HOJIEVA. Ali Şir Nevai'nin Eserlerinde Türk Halklari Atasözlerinin Yansimasi	581

TEZISLAR	
Axmedova Shoir. Navoiy va Jomiy maktublarida badiiy ijodga munosabat	586
Abdurahmonova Barno, M. Solijonova. Furqat ijodida navoiyona ohanglar	589
Abdullayeva Marg'uba. Maqolat va hikoyat uyg'unligi	592
Ashirmatova Madina, Xojimatova Barno. Alisher Navoiy asarlarining Turkiya adabiyoti va adabiyotshunosligiga ta'siri	596
Abduraimova Xafiza. Alisher Navoiy g'azaliyotida sad timsoli	599
Nazora Bekova. Alisher Navoiy adabiy merosi tadqiqida Faxriy Hirotiy "Radoyif ul-ash'or" asarining o'rni	603
Dehqonov Akramjon. "Hayratul abror"dagi "tot" so'zi haqida	607
Jamolova Zilola. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida adabiy obzor janriga xos unsurlarning tahlili	610
Jo'raboyev Nosir. Alisher Navoiyning tarixiy asarlari manbalari	614
Jo'rayeva Sobira. Navoiy va Shukuriy	617
Dilfuza Zaripova. Huvaydo ijodida Navoiy an'analari	620
Iskandarov Fayzulla. "Farhod va Shirin" dostonidagi na't boblarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	624
Ibotova M. Alisher Navoiy lirikasida ruhning badiiy ifodasi	627
Meliyev Suvon. Alisher Navoiy va Chingiz Aytmatov: qiyos hadlari	630
Babanazar Murtazayev. "Sab'ai sayyor" va "Hasht bihisht" da Dilrom obrazi	632
Mamatqulov Muzaffar, Fayzullayeva Obidaxon. Tuyuq janri takomili va Alisher Navoiy tuyuqlari	639
Nazarov Nasriddin. Alisher Navoi phenomenon in the development of cultural processes	643
Rahmatov Mardon. Alisher Navoiy g'azallarida nutq subyekti	647
Rahmonov Vahob, Nishonov Shavkat. Navoiyona badiiyat mo'jizalari	652
Rajabova Ma'rifat. Alisher Navoiy she'riyatida ruh sayrining badiiy taqini	654
Rahmonova Zulayho. Jonimni habib ayog'i tufrog'ig'a sol..	657
Saidova Rayhon. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ijod va ijod ahli haqidagi qarashlari tahlili	660
Sanakulov Ulug'bek. Alisher Navoiy she'riyatda Layli Va Majnun timsollari taqini an'anasi	664
To'xtamuratov Furqat. Qo'lyozma bayozda Navoiy g'azallari matniy tadqiqi	668
Temirov Farrux. Sadriddin Ayniy – Navoiy ijodiy merosi tadqiqotchisi	671
Tojiyev Dostonjon. Historical significance of "Alisher Navoi international award"	674
Tojixon Sabitova. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy asarlarida shohlar vasfi	678
Tuychiyeva Maxfuza. Navoiy ijodini o'rganish tajribasi bir ruboiy misolida	681
Xalliyeva Gulnoz. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida qiyosiy metodologiya asoslari	685
Xo'jayev Tohir. Navoiy g'azallaridagi ayrim obrazlar xususida	688
Xasanova Barno. Navoiyning peyzaj lirikasi	691
Ulug'murodova Kamola. "Navodir ush-shabob" da Layli obrazining badiiy taqini	694
Haydarova Gulhayo. Alisher Navoiy an'analari va XX asr o'zbek g'azaliyoti	698